


Laboratoriya ishi. ISTE'MOLCHI (LAMPOCHKA)NING ELEKTR QUVVATINI ANIQLASH



86-rasm.

Ishning maqsadi: iste'molchining quvvatini tok kuchi va unga qo'yilgan kuchlanish orqali aniqlashni o'rganish.

Kerakli jihozlar: tok manbai, iste'molchi (lampochka), ampermetr, voltmetr, kalit, ulovchi simlar.

Ishni bajarish tartibi

1. Tok manbai, lampochka, ampermetr, voltmetr va kalitdan iborat zanjirni yig'ing (86-rasm).

2. Yig'ilgan elektr zanjirning sxemasini chizing.

3. Kalitni ulang va sekundomerni ishga tushiring.

4. Ampermetr va voltmetr ko'rsatkichlarini aniqlang va jadvalga yozing.

5. $P = I U$ formula bilan lampochkadagi tokning quvvatini hisoblang va jadvalga yozing.

6. Kalitni uzing va, ayni vaqtda, sekundomer tugmasini bosib, uni to'xtating. Lampochkaning qancha vaqt yonib turgan t vaqtini jadvalga yozing.

7. $W = I U t$ formula yordamida sarflangan elektr energiya miqdorini hisoblang. Natijani jadvalga yozing.

8. Tajribani 3 marta takrorlang. Natijalarni jadvalga yozing.

9. $P_{\text{otn}} = (P_1 + P_2 + P_3)/3$ ifoda orqali lampochkaning o'rtacha quvvatini hisoblang. Olingan natijani lampochkaga yozilgan quvvat bilan taqqoslang.

10. Natijalarni tahlil qiling va xulosa chiqaring.

No	I, A	U, V	P, W	P_{otn}, W	t, s	$W, W \cdot s$
1						
2						
3						